

# Xalq Tabobati va Ommaviy E`tiqodlar

1  
BOB

Dunyodagi barcha xalqlar xastaliklarni davolashda xalq tabobati usullarini ham qo'llaydilar. Ba'zi joylardagi an'anaviy bo'lib qolgan qadimgi davolash sirlari avloddan avlodga yuz yillar davomida o'tib kelmoqda.

Xalq tabobatining ko'pgina usullari bebahodir. Ba'zilarining foydasi esa unchalik ko'p emas yoki umuman xavfli va zararli bo'lishi mumkin. Xalq tabobati usullaridan ham zamonaviy dorilar singari ehtiyotkorlik bilan foydalinish kerak.

**O'zingizga zarar yetkazmaslikka harakat qiling. Siz xavfsiz va ishlatishti yaxshi biladigan xalq tabobati usullarinigina qo'llang**

## YORDAM BERUVCHI XALQ TABOBATI USULLARI

Yillar davomida sinalgan, ba'zi xalq tabobati usullari ko'p kasalliklarni xuddi zamonaviy dorilar singari yoki ulardan ham yaxshiroq davolaydi. Ular odatda arzonroq va ko'p hollarda xavfsizroq bo'ladi ham.

Masalan, yo'tal va shamollashlarda tayorlanadigan turli o'simliklarning damlamalari ko'p shifokorlar yozib berган yo'tal dorilariga nisbatan foydaliroq.

Shuningdek, ichi ketayotgan bolani ko'proq emizish, oq xo'rda(qaynatilgan guruch) va choy damlamalarini berish har qanday zamonaviy dorilardan xavfsiz va foydaliroqdir. Bundagi ahamiyatlari narsa ichi ketayotgan bolaning ko'p suyuqlik ichishidir (296 - bet).



YO'TAL, SHAMOLLASH VA  
ODDIY ICH KETISHNI TURLI  
O'SIMLIKLARDAN DAMLANGAN  
CHOYLAR BILAN DAVOLASH,  
ZAMONAVIY DORILARGA NIS-  
BATAN YAXSHIROQ, ARZONROQ  
VA XAVFSIZROQDIR

## Xalq Tabobati Usullarini Qo'llashdagi Chegaralar

Ba`zi kasalliklar “Xalq tabobati usullari” yordamida tezroq davolansa, boshqalari esa zamonaviy dorilar yordamida davolanishi kerak. Ayniqsa, jiddiy kasalliklarni zamonaviy tibbiyotning aralashuviziz davolash qiyin. Zotiljam (pnevmoniya), qoqshol, terlama, sil, chuvalchangsimon o'simtaning yallig'lanishi (appenditsit), jinsiy aloqa orqali yuqadigan kasalliklar va tug'ruqdan keyingi isitma kabi kasalliklar zamonaviy dorilar yordamida tezroq davolanishi kerak. Ushbu kasalliklarga chalinganigizda xalq tabobati usullarini qo'llab vaqt ni o'tkazmasdan, darhol uning o'rniiga zamonaviy dorilarni ishlating. Xalq tabobati usullaridan qaysilari foydali va qaysilari zararlilagini bilish qiyin. Ularni puxta o'rg'anish kerak. Shuning uchun:

**Juda jiddiy kasalliklarni zamonaviy dorilar yordamida, iloji bo'lsa,  
tibbiyot xodimi maslahatlariga rioya qilgan holda davolash  
maqsadga muvofiqli.**

## Eski va Yangi Usullar

Ba`zi zamonaviy usullar eskilariga nisbatan yaxshiroqdir. Lekin ba`zi vaqlarda eski va an`anaviy usullarning afzal tomonlari ham bo`ladi. Masalan, bolalar yoki qariyalarni parvarish qilishning an`anaviy usullari zamonaviy usullarga nisbatan yaxshiroq bo`lishi mumkin.

Chaqaloqqa ona suti eng yaxshi ozuqa ekanligini bilib olganingizga ko`p vaqt bo`lgani yo`q. Bu haqiqatan ham shunday. Keyingi paytlarda qadoqlangan sun`iy sut ishlab chiqaruvchi korxonalar, onalarga bolalarni butilkadan (idishdan) ovqatlantirish yaxshiroq ekanligini ayta boshladilar. Bu noto`gri fikr, lekin ko`plab onalar bunga ishonib, bolalarini butilkadan (idishdan) ovqatlantira boshladilar. Natijada, minglab bolalar aziyat chekib, infeksiya yoki ochlikdan nobud bo`ldilar. Bolani emizish eng yaxshi usuldir. (502 - bet)

**Xalqning an`analarini hurmat qiling va ularning  
tajribalariga tayaning**

## ODAMLARNI DAVOLOVCHI E'TIQODLAR

Xalq tabobatining ba`zi usullari tanaga bevosita ta`sir qiladi. Boshqalari esa odamlar unga ishonganlari tufayli ta`sir qilgandek bo`ladi. Ishonchning shifobaxsh qudrati juda kuchli bo`lishi mumkin.

Masalan, men bir mar-ta juda qattiq bosh og'rig'idan azoblanayotgan odamni ko`rganman. Uni tuzatish uchun bir ayol unga oshqovoqning bir bo`lagini berdi. Ayol unga bu kuchli og'riq qoldiruvchi dori ekanligini aytdi. Bemor unga ishondi va ogriq yo`q bo`lib ketdi.

Bemorning tuzalishiga os-hqovoq emas, balki uning shu os-hqovoq orqali davo topa olishiga bo`lgan ishonchi sabab bo`lgan.

Xalq tabobati usullarining ko`pi shu narsaga assoslangandir. Ularning ish-latalishiga sabab odamlarning unga bo`lgan ishonchidir. Shu sababdan xalq tabobati usullari, ayniqsa, **odamlarning ko`nglida-gi qo`rquv yoki xavotirga tushish orqali kelib chiqqan kasalliklarda foydalidir**.

Ushbu guruhga kiruvchi kasalliklardan: ko`z tegishi, sababsiz yoki vahimali qo`rqinch, noma`lum og'riqlar (ayniqsa, qiyin asabiy holatlarni boshidan kechirayotgan odamlar, masalan, birinchi marta hayz ko`rayotgan yosh qizlar) hamda asabiy xavotirlanish kabilarni bilamiz. Shuning-dek, bunday kasalliklar qatoriga astmaning ba`zi turlari, hujichoq, qorin og'rig'i, oshqozon yaralari, migrenli bosh og'riqlar va hatto so`ngallarni ham kiritish mumkin.

Yuqoridaagi kasalliklarda **tabibning muolajalari, ushlab qo`yishi yoki boshqacha harakatlari juda muhim o`rin egallaydi**. Ko`p hollar-da, bemorni davolashdagi ahamiyatli narsa bemorga yordam bermoqchi ekanligini ko`rsatish, uni tuzalishiga ishontirish yoki tinchanishiga yordam berish kabilardir.



## ODAMLARNI KASAL BO'LISHIGA OLIB KELUVCHI E'TIQODLAR

Ishonchning davolovchi qudrati, odamlarning tuzalishiga yordam beradi. Lekin bu narsa ularga zarar yetkazishi ham mumkin. Agar odam o`ziga biror narsa yomon ta`sir qilishiga ishonsa, uning ishonchi uni kasal qilishi mumkin. Masalan:



Bir marta men bolasi tushgan va hanuzgacha bir oz qon yo`qotayotgan ayol oldiga chaqiritilgan edim. Men unga o`rik sharbatidan ichishni maslahat berdim. (O`rik tarkibida qon tomirlarga foydali S “Ц” vitamini bor.) U shu sharbatdan ichdi, ammo shu ichimlikning unga zarar yetkazishiga bu ayol qattiq ishongan edi.

Uning qo`rqinchi shunchalik kuchli ediki, ayol tez orada qattiq kasal bo`lib qoldi. Men uni tekshirib ko`rdim va jismoniy kamchilik topa olmadim. Men uni xavfli holatda emasligiga ishontirishga harakat qildim. Lekin u o`lib qolishiga ishonar edi. Oxiri men unga distillangan (toza) suvdan bir oz ukol qildim. Suvning hech qanday tibbiy ta`siri yo`q edi. Lekin ayol ukollarga qattiq ishonganini tufayli tez orada tuzalib ketdi.

Sharbat unga zarar yetkazmagan. Unga zarar yetkazgan narsa sharbatning unga zarar yetkazishiga bo`lgan **ishonchi edi**. Uning tuzalishiga esa ukollarga bo`lgan e`tiqodi sabab bo`lgan!

Shunday qilib, ko`p odamlar ukollar, parhez va boshqa narsalar haqidagi noto`gri ma`lumotlarga ishonadilar. Natijada, ortiqcha azoblar kelib chiqadi.

Balki men ushbu ayolga yordam bergandirman. Lekin bu haqida o`ylaganim sari men noto`g`ri ish qilganimga ishonch hosil qildim, men uning haqiqatga to`gri kelmaydigan narsalarga ishonishiga yordam berdim.

## Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Lekin men buni to`gri hal qilishni xohlardim. Bir necha kundan keyin, ayol butunlay tuzalib ketganidan so`ng, men uning uyiga borib qilgan ishim uchun uzr so`radim. Men uni kasal qilgan narsa sharbat emas, balki uning **qo`rkinchi** ekanligiga ishonishiga yordam berdim. Uni tuzatgan narsa esa ukol emas, balki uning **qo`rqinchdan qutulishi** ekanligini tus-huntirdim.

Sharbat va ukol haqidagi haqiqatni va uning ongdagi aldrovlarni bilgandan so`ng ushbu ayol va uning oila a`zolari qo`rqinchdan biroz qutulgan bo`lishi mumkin va kelajakda ular o`z sog'liklariga yana ham e`tiborliroq bo`lishga qodirlar.

### **Sog'lik - tushunish va ichki qo`rqinchdan qutulishga bog'liq**

#### **SEHRGARLIK, KINNACHILIK, KO'Z TEGISHI VA FOLBINLARGA BORISH**

Ko`p odamlar o`zлari yoki oila a`zolari kasal bo`lganida bu kasallik yomon ko`z, qarg`ish yoki biror sehr-jodudan deb o`ylaydilar. Ular xalq tabobati usullarini qo`llash va shifokorga borish o`rniga kinnachi, baxshi yoki qari kampirlardan madad izlaydilar. Tabiblar deb atalgan bunday kishilar tasbeh, tumor, duolar o`qish kabi turli usullardan foydalangan holda kasallikni davolashga harakat qiladilar.



Ko`pgina odamlar kasalligini tushunmagan va bilmaganliklari tufayli bunday tabiblar oldiga boradilar. Boshqa vaqtarda esa ular kasalxonaga borishga qo`rqadilar yoki qimmat dorilar uchun pullari bo`lmaydi. Gohida esa fursat o`tganida shifokorlar yordam bera olmaydigan ahvolda boradilar. Ushbu malakasi va kuchi bo`Imagan tabiblarning ko`pchiligi boyish maqsadida kasalning holidan foydalanadilar. Ushbu kitob kasallikning kelib chiqish sabablari va uning tuzalishiga yordam beruvchi vositalarni bilib olishingizga yordam beradi. Kasalligingiz sabablarini bilmay turib kinnachiga hadeb borish yaramaydi, bu sizga foyda ham bermaydi.

Masalan. Teringizga noma`lum yaralar chiqqan bo`lsa, kinnachiga borishdan avval 374 - betdagи teri kasalliklari jadvaliga qarang. Yaralar va

belgilarga qarab kasalligingizni aniqlang. Bundan so`ng uning davolanish usuli haqida o`qib, unga amal qiling.

Ehtiyyot bo`ling. Ba`zan jiddiy tibbiy muammolar fursatni o`tkazmasdan turib, zudlik bilan tibbiy yordam ko`rsatish orqali bartaraf etilishi mumkin. Ba`zi odamlar kasal bo`lib qolganlaridan so`ng avval baxshi yoki kinnachi oldiga boradilar. 2-3 hafta o`tib, kasali zo`raygandan keyin shifokorga murojaat qiladilar. Endi davolanish uzoqroq kechib, ko`p xarat talab qiladi. Agar ular kasallik boshlanganida shifokorga borganlarida edi, kasallikni davolash tez va oson kechgan bo`lar edi.


Agar siz kasal bo`lsangiz-u va kinnachi yoki baxshiga bormoqchi bo`lsangiz, shifokorga ham uchrashishni unutmang. Agar vujudingizda g`alati o`zgarishlarni sezsangiz yoki jiddiy kasallikdan shubha qilsangiz, kutib o`tirmang. Tezda shifokorga murojaat qiling.



## BA'ZI AN'ANAVIY E'TIQODLAR VA XALQ TABOBATI USULLARIGA OID SAVOL-JAVOBLAR

Quyidagi misollar O'zbekiston sharoitidan olingan. Yashayotgan joyingizdagi ushbu oddiy holatlarni kuzating va qaysilari foydali yoki zararli ekanligini bilib oling.

Yangi tug'ilgan  
chaqaloqni qirqi  
chiqmagunga  
qadar cho` miltirish  
mumkin emasligi  
to'g'rimi?



Chaqaloqni turli kasalliklardan  
saqlash uchun uni doimiy ravishda cho` miltirib turish kerak.  
Lekin bola kindigi tushib ketgunga qadar quruq saqlanishi  
kerak. Unga qadar esa bola  
badanini toza, yumshoq, iliq  
nam latta bilan artib turing.

Yangi tuqqan ona  
necha kun cho` milmasligi kerak?



Ona tug`ruqdan keyingi kuni  
va bundan keyin doimiy  
ravishda iliq suv bilan yuviningi  
kerak. Tug'uqdan so`ng  
40 kun cho` milmaslik odatda  
infeksiyalarga olib kelishi  
mumkin.

An`anaviy emizish  
odati zamonaviy  
“butilka(idish)”  
orqali oziqlantirishdan yaxshiroq  
ekanligi rostmi?



ROST! Ko`krak suti yaxshiroq va bolani turli infeksiyalardan himoya qiladi.

Bemorni, hatto  
toshma toshgan  
odamni, cho`milti-  
rish yaxshimi yoki  
bu zararli bo`lishi  
mumkinmi?



Cho`miltirish toshmani infeksi-  
yalanishdan himoya qiladi. Bu  
yaxshi fikr. Kasal odamlar har  
kuni iliq suvda cho`miltirilishi  
kerak.

Agar bolam ko`p  
kasal bo`layotgan  
bo`lsa, bu mening  
sutim yoqmayot-  
ganidan bo`lishi  
mumkinmi?



YO`Q! Bolaning kasal  
bo`lishiga ko`p narsalar  
sabab bo`lishi mumkin, lekin  
onaning suti emas. Ona suti  
eng yaxshi va xavfsiz ozu-  
qadir, ayniqsa, kasal bolalar  
uchun.

Homilador ayol el-  
lik ovqat yemasligi  
kerakmi?



Ellik ovqatlar toshma (yoki  
boshqa allergik reaksiya)  
larga sabab bo`lishi mumkin  
(juda kam hollarda). Lekin el-  
lik masalliqlarning ko`pi (no`x-  
ot, loviya, mosh) juda to`yimli  
va ularni hamma odamlar,  
ayniqsa, homilador va emizikli  
ayollar yeb turishlari kerak.

Bolamning ichi  
ketayotganda  
unga qatiq bersam  
bo`ladimi?




Ha, qatiq ichni o'tkizadigan  
mikroblarni o'ldirishga yordam  
beradi.

Betonda va zax  
joylarda o`tirish  
yoki ventilyator oldi-  
da uqlash grippga  
olib keladimi?




Bu sizni gripp bo`lishga yoki  
shamollahsga moyilroq qilishi  
mumkin, ammo gripp yuqumli  
bo`lib, u kasal odamdan havo  
yoki kasal odam idishidan  
foydalanish orqali yuqadi.

Bolamning kesilgan kindigi uchiga  
(yoki pichilgan joylariga) kul yoki  
loy sepishim mumkinmi?



YO`Q! Har qanday loy va iflos  
narsa yarada infeksiyani keltirib  
chiqarishi mumkin.

Ichiga asal quyib  
pishirilgan behi  
yoki turp, yo'talni  
tuzatishga yordam  
beradimi?



Ha. Bu tomoqni yumshatadi  
va balg'amni ko'chiradi.

## HALQ TABOBATI USULLARI TO`G`RI YOKI NOTO`G`RILIGINI BILIB OLİSH YO`LLARI

Xalq tabobati usullarini ko`p odamlar qo'llashi, ularning to`g`ri yoki xavfsiz ekanligini bildirmaydi. Ularning qaysilari yaxshi-yu, qaysilari yomonligini aytib berish juda mushkul. Buni bilish uchun ularni ehtiyojkorlik bilan o`rganish kerak bo`ladi. Quyida uy muolajalarining qaysilari yaxshi emas yoki xavfli ekanligini bilishga yordam beruvchi yo`l-yo`riqlar keltirilgan.

### 1. MA`LUM KASALLIKNI DAVOLASH YO`LLARI QANCHALIK KO`P BO`LSA, ULARNING TA`SIRI SHUNCHALIK OZ BO`LADI.

Masalan: So`ngalga qarshi bir qancha davolash usullari bo`lib, ulardan hech birining foydasi yuqori darajada emas. Quyida shulardan bir nechasi keltirilgan:

1. anjir suvini surtish
2. qatiq surtib kuchukka yalatish
3. buloq suvida yuvish
4. ot dumining qili bilan bog`lash.
5. duo o`qish

**Agar kasallikning hammaga ma`lum bittagina davosi bo`lsa, uning to`g`riligiga shubhalanmasa ham bo`ladi.**

### 2. DAVO BILAN KASALLIK BIR-BIRIGA O`XSHAB KETSA, UNING DA-VOSI KO`PROQ ISHONCHDAN KELIB CHIQADI DESAK BO`LADI.

Quyidagi kasalliklar va ularning davosi orasidagi bog'liqlik ko`rinib turibdi:

1. Qizamiqda bemorga qizil ko`ylak kiydirish.
2. Milkda pilla bo`lib qolsa unga pilla qo`yish.

## Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

3. Tepkini davolash uchun egizak tuqqan ayol ostonasiga boshini qo'yib turgan bemorning jag`iga asta tepib qo'yish.
4. Vahimaga tushgan odam arining inini qaynatib ichishi.
5. Ko`zga ninalog`ich chiqsa, do`ppiga igna qadab ko`z oldiga tushirib yurish.

Ushbu davolar va bularga o`xshagan boshqalarining hech qadr-qiymati yo`q. Agar odamlar bularga astoydil ishonsa, shundagina ular bir qadar foya qilishi mumkin. Lekin jiddiy muammolarda ularning ishlatilishi davolanishni kechiktirayotganiga e`tibor bering.

## SHIFOBAXSH O`SIMLIKLAR

Ko`p o`simliklarning davolovchi qudrati bor. Ko`plab zamonaviy dorilar yovvoyi o`tlardan olingan.

Lekin odamlar ishlatadigan „shifobaxsh o`tlar” ning barchasi ham tibbiy qimmatga ega emas va noto`g`ri ishlatilayotganlari ham bor. Yashayotgan joyingizdagi yovvoyi o`simliklardan foydalanishni o`rganing.



**EHTIYOT BO`LING!** Ba`zi o`tlarning aytilgan miqdordan ortiq ishlatilishi zaharli bo`lishi mumkin. Shuning uchun, miqdorini to`g`ri o`lchab bergani osonroq bo`lgan zamonaviy dorilarni ishlatgan ma`qul.

**E`tibor bering: Homilador va emizikli ayollar ushbu o`simliklarni ichmasligi kerak.**

Quyida ehtiyojkorlik bilan ishlatilganda foya qiluvchi dorilar berilgan: (Ko`proq ma`lumot topish uchun 601 - betga qarang).

## O`SIMLIKLARNI TAYYORLASH

Ko`proq 1 - 4 choy qoshiq choynakka solib, 150 mg qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin kuniga 3 mahal 1 piyoladan ichiladi.

## DALACHOY

(Ruscha nomi “Zveroboy”, Lotincha nomi “Hypericum perforatum”)

Ruhiy tushkunlik uchun yordam beradi (333-336, 663, 731 - betlar). Dunyoda ko`p mamlakatlarda ishlataladi va O`zbekistonda bemalol topiladi. Ilmiy ishlar bilan uning foydasi tasdiqlangan. U foydali va arzon. Tushkunlikni davolash uchun ushbu tabiiy shifobaxsh o`simlikdan foydalaning.

*Miqdori:* 2-4 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut damlanganidan keyin keyin kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.



## KATTA ZUBTRUM

(Ruscha nomi “Podorojnik”, Lotincha nomi “Plantago major”)

Astma, bronxit, va ODDIY shamollash uchun yordam beradi.

*Miqdori:* 2-4 choy qoshiq choynakka solib, 150 mg qaynatilgan suvni quyib, 15 minut damlanganidan keyin kuniga 3 mahal 1-2 piyoladan iching.



## ALOE (Ruscha nomi “Aloe”, Lotincha nomi “Aloe vera”)


Aloe badanning yengil kuygan joyiga va jarohatlarga davo qilish uchun ishlataladi. O`simlik sharbati og`riq va qichishishni pasaytiradi, davolaydi va infeksiyaning oldini oladi. O`simlikdan bir bo`lak kesib olib, po`stini arching va uni kuygan joy yoki jarohatga qo`ying.



## MAKKAO'XORI SOQOLI (POPUGI)

Makkajo'xori popugidan damlangan choy, siydk haydovchi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, homiladorlikdagi oyoq shishlarini pasaytirishga yordam beradi (459 - bet).

Bir siqim popukni bir choynak suvda (yarim litr) qaynating va 1 yoki 2 piyola iching. U xavfli emas.



## SARIMSOQ

Sarimsoqdan tayyorlangan ichimlik, ko'pincha mayda qurtlar (ostritsa)ni yo'qotadi.



Sarimsoqning 4ta bo'lakchagini olib, mayda qilib to'rg'ang yoki ezing va 1 stakan (250 ml) suyuqlik (suv, sharbat yoki sut) bilan aralashtiring.

Miqdori: 3 hafta davomida kuniga 250 ml. dan iching.

**Quyidagi muammolar uchun, ko'pgina shifobaxsh o'simliklar ham foydali bo'ladi (730-733 - betlar):**

- **Asabiylanish:** Valeriana, Arslonquyruq (Pustrnik)
- **Astma va bronxit :** Katta Zubtrum (Podorojnik), Qizil miya (Solodka).
- **Buyrak toshlari:** Petrushka, Qichitqi (Krapiva).
- **Gastrit, qorin og`rig'i:** Moychechak (Romashka), Bo`ymodaron (Tsyachelistnik)
- **Ichakning o`qtin-o`qtin og`rishi:** Yalpiz(Myata), Bo`ymodaron (Tisyachelistnik) Moychechak (Romashka)
- **Ich ketar:** Qatiq
- **Ich qotishi:** Olma, Sano(Kassiya)
- **Ishtaha oshiruvchi:** Bo`ymodaron (Tisyachelistnik)
- **Kuyish:** Aloe(teri ustiga)
- **Oyoq tomirlarning kengayishi:** uzum barglari, uzum urug`lari, gilos, piyoz, sarimsoq, achchiq qalampir
- **Oshqozon yaralari:** Qizil miya(shirin miya, solodka)
- **Ruhiy tushkunlik:** Dalachoy (Trava Zveroboya)

- **Sariq kasallik (gepatit):** Karsil kapsul (o'simlikdan qilingan)
- **Tarvoq toshishi:** Qatiq
- **Teri yaralari:** Kalendula (teri ustiga), asal (teri ustiga)
- **Uyqusizlik:** Valeriana, Moychechak (Romashka), agar tushkunlikka tushgan bo`lsa, Dalachoy (Trava Zveroboya) ham foydali bo`ladi.
- **Shamollash:** Katta Zubtrum (Podorojnik)
- **Yurak yetishmovchiligi:** Do'lana (Boyarshnik)
- **O't pufagidagi og`riq:** Yalpiz (Tabletki myatnie)
- **Qindagi qattiq qichishish, oqtusli ajralma (po`panak, kandidamikoz):** qatiq
- **Qurtlar:** Qora andiz
- **Hayz ko`rishning to`xtashi paytdagi qizib ketishi:** Soya uni.
- **Hayz davridagi og`riq:** Jag`-jag` (Trava pastushya sumka)

### SINGAN SUYAKLARNI DAVOLASH.

### SINGAN SUYAKLARNI SILJITMASDAN DAVOLASH UCHUN ISHLATILADIGAN XONAKI GIPSI.

Meksikaning dukkakli o'simliklari va daraxt po'stlog'i gips o'rnida ishlatiladi. Lekin, quriganda qotib, qattiq bo'lib qoladigan va terini ta'sirla-maydigan o'simlik sirop (sharbat) ishlatilishi mumkin. Siniqchilari daraxt sharbatidan qilingan sirop o'rniga, tuxum oqi va o'simliklarni ishlatadilar. Yashayotgan joyingizdagи turli o'simliklarni ishlatib ko'ring.

1 kg. po'stga 5 litr suv quyib, undan 2 litr qolgunga qadar qaynating. Uni suzib, qo'yilib sirop hosil bo'lgunga qadar qaynating. Flanel yoki toza choyshab tasmasini unga tushiring va quyidagicha ishlatiting.

## Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Suyaklar to'g'ri joylashganiga e'tibor bering (122 - bet).

Gipsni to'g'ridan to'g'ri teri ustiga qo'y mang.

Oyoq yoki qo'lni yumshoq material bilan o'rang.

So'ng, paxta bilan o'rang.

Oxirida, xo'llangan, keyinchalik gipsdek qotadigan lekin tortilib qolmaydigan latta tasmalarini o'rang.

Ko'p shifokorlarning maslahat berishicha, singan suyak siljimaydigan bo'lishi uchun gips joyning te-pasi va pastidagi bo'g'imlarni qoplashi kerak.



Bu degani, agar bilak sinsa, u quyidagicha gips qilinib, deyarli butun qo'lni qoplashi kerak.

Barmoqlar rangining o'zgarishini ko'rish uchun, ularni ochiq qoldiring.

Xitoy va Lotin Amerikasi siniqchilari qo'lning bir oz harakatlansishi tuzalishni tezlashtiradi, deb, qo'lning oddiy sinishida kalta gips ishlata dilar. Oxirgi paytlarda qilingan tadqiqotlar buni to'g'ri ekanligini ko'sratmoqda. Vaqtinchalikka bo'lган taxtakachalar uchun, karton, jipslashtirilgan qog'oz yoki daraxt shoxi ishlatilishi mumkin.

**EHTIYOT BO'LING:** Gips qo'yilgan vaqtda singan joyni qismasa-da, keyinchalik u shishib ketishi mumkin. Agar, kasal gipsning qisayotgani dan shikoyat qilsa yoki uning qo'l yoki oyoq barmoqlari sovib, oqarib yoki ko'karib ketsa, gipsni echib, yangitdan bo'shrog'ini qo'ying.


Kesilgan joy yoki jarohatda xech qachon ustidan gips qo'y mang.



## KLIZMA(HUQNA), ICHNI YUMSHATUVCHI VA YURGIZUVCHI VOSITALARNI QANDAY VA QACHON ISHLATISH KERAK

Ko`pgina odamlar ichni yumshatuvchi vositalar va klizma(huqna)larni juda ko`p ishlata dilar. Ich yurgizuvchi vositalardan foydalanish dunyoda keng tarqalgandir.

**Klizma**(huqna) va ich yurgizuvchilar odatdagи uy muolajalaridan hisoblanadi. Ular odatda juda xavflidir. Ko`p odamlar isitma va ich ketishni klizma (orqa peshov orqali ichakka suv jo`natilishi), ich yurgizuvchi yoki yumshatuvchi vositalar bilan dardni “yuvilib ketishi”ga ishonadilar. Afsuski, ichakni tozalash yoki yuvishning bunday yo`llari shikastlangan ichakning yanada qattiqroq zararlanishiga olib keladi.



**Klizma(huqna) va ich yumshatuvchilarning foydasi juda kam.  
Odatda ular juda xavfli - ayniqsa, kuchli ich yurgizuvchilar.**

## ICH YURGIZUVCHI VA KLIZMALARNI ISHLATISH XAVFLI BO`LGAN HOLLAR

Agar bemorda kuchli qorin og`rig`i yoki appenditsitning (196-bet) boshqa belgilari kuzatilsa, uning bir necha kundan beri ichi kelmagan bo`lsa ham, **hech qachon** klizma qilmang yoki ich yumshatadigan dori **bermang**.

O`q bilan jarohatlangan yoki ichak jarohatlari bo`lgan odamlarga **hech qachon** klizma qilib, ich yumshatuvchi **bermang**.

2 yoshga kirmagan bolaga **hech qachon** klizma qilmang yoki ich yurgizuvchi bermang.

## Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Isitmasi bor, qayt qilayotgan, ichi o`tayotgan, suvsizlanish belgilari bor (281-bet) bolaga **hech qachon** ich yumshatuvchi yoki yurgizuvchilar **bermang**. Bu suvsizlanishni kuchaytirib, bolani o`ldirishi mumkin.

Ich yumshatuvchilarni ishlatalishga **odatlanmang** (152-bet, “Ich qotishiga” qarang).

### KLIZMA(HUQNA)NING TO'G'RI ISHLATILISHI

1. Oddiy klizma ich qotishini (quruq, qattiq, qiyin axlatlar) yo`qotadi. Faqat iliq suv yoki biroz sovunli suvni ishlating.
2. Qattiq qayt qilayotgan va suvsizlangan kasalga suv o`rniga “Suvni Tiklovchi Ichimlik”ni **juda sekin** klizma(huqna) orqali jo`natish mumkin (283, 284-bet).

### KO`P ISHLATILADIGAN KLIZMA VA ICH YUMSHATUVCHI VOSITALAR

BISAKODIL, DULKOLAKS. Sano (kassiya) o`simligi	Bular kuchli dorilar bo`lib, foydasi- dan zarari ko`proq bo`lishi mum- kin. Ularni ko`p ishlatmang!
MAGNIY TUZI (magniy sulfat) (716 bet)	Bular tuzli ich yurgizuvchilardir. Ularni ich qotib qolganda faqat kichik dozalarda ishlating. Ularni ko`p ishlatmang va ayniqsa, qorin- da og`riq bo`lganda.
MINERAL YOG' (717 bet)	U ko`pincha bavosili bor odam- larga ishlataladi...ammo bu ham ich qotishga qarshi yaxshi foyda bermaydi. Shuning uchun tavsiya qilinmaydi.

## ICH YUMSHATUVCHI VA YURGIZUVCHILARNING TO`G`RI ISHLATILISHI

Ich yumshatuvchi dorilar ich yurgizuvchilarga o`xshab ketadi, ammo ularga nisbatan bir oz kuchsizroq. Yuqorida aytilgan barcha dorilar, oz miqdorda qabul qilinganda yumshatuvchi va kattaroq miqdorlarda esa ich yurgizuvchi bo`lib xizmat qiladi. Ich yumshatuvchilar ichni yumshatib, uni yurishuvini tezlashtiradi, yurgizuvchilar ich ketishiga olib keladi.

Ich yurgizuvchilar: Bularning ishlatiladigan birdan bir vaqt, kuchi zaharlanish bo`lib, bunda ich tez tozalanishi kerak (209-bet). Boshqa vaqtlarda ich yurgizuvchilar zararli bo`lishi mumkin!

Ich yumshatuvchilar: Magneziy sulfat yoki magneziyaning boshqa tuzlari kichik miqdorlarda ich yumshatuvchi sifatida turli ich qotishlarda ishlatilishi mumkin. Bavosili bor odamlar (gemorroy, 328-bet) mineral yog` ni ishlatishi mumkin, lekin bu ularning axlatini yumshatmaydi, balki uni sirg`anchiqroq qiladi. Mineral yog` miqdori 3 - 6 choy qoshiq bo`lib, yotishdan avval ichilishi kerak (uni ovqat bilan birga ichmang, chunki u ovqatdagi vitaminlarni yo`qotadi). Bu yaxshi yo`l emas.

Orqa peshovga qo`yiladigan shamchalar yoki o`q shaklidagi dorilar ham ichni yurgizishda yoki bavosillarda ishlatilishi mumkin (328- va 721-betlarga qarang).

### YAXSHIROQ YO`L

Tolali ovqatlar. Ichni yumshatish va yurgizishning foydaliroq yo`li - bu ko`proq suv ichish va tolali ovqatlardan ko`p iste`mol qilishdir. Masalan, “hazm qilish yengil bo`lgan” oshqovoq, kepak (bug`doy qobig`i) va boshqa donli kashalardan foydalanishdir (715-bet). Meva va sabza-votlarning ko`p iste`mol qilinishi ham yordam beradi.

Odatda tabiiy tolali mahsulotlarni, masalan kepakli unni ko`p iste`mol qiladigan odamlar, tozalangan “zamonaviy” ovqatlar, masalan: tozalangan oq guruch, yuqori navli un kabilarni iste`mol qiluvchilarga nisbatan bavosil, ich qotishi va ichak raki (o`sma) singari kasalliklar bilan kamroq kasal bo`ladilar. Ichning yaxshi yurishi uchun tozalangan donli mahsulotlarni iste`mol qilishdan saqlaning. Qora nonning oqiga nisbatan kepagi ko`proq. Olma va olxo`rilarni iste`mol qilish foydalidir.